

«KIBERKRIMINOLOGIYA» TUSHUNCHASINING GENEZISI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19347088>

Aliev Maxsudjon Anvarovich

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Toshkent shahar boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatning axborotlashuvi sharoitida yangi ilmiy yo'nalish – raqamli kriminologiyaning shakllanishi va nazariy-metodologik asoslari kompleks tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida kibermakondagi zamonaviy kriminogen tahdidlar, jumladan, sun'iy intellekt, dipfeyk, to'lov talab qiluvchi dasturlar va darkveb faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tizimli tahlil qilingan. Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, virtual makondagi jinoiy xulq-atvor determinantlari ochib berilgan. Shuningdek, «kiberkriminologiya» tushunchasiga yangi mualliflik ta'rifi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar

raqamli kriminologiya, kiberjinoyatchilik, kibermakon, raqamli izlar, sun'iy intellekt, dipfeyk, virtual viktimologiya, axborot xavfsizligi, prevensiya.

Аннотация

В данной статье комплексно исследованы формирование и теоретико-методологические основы нового научного направления – цифровой криминологии в условиях информатизации общества. В ходе исследования системно проанализированы современные криминогенные угрозы в киберпространстве, в том числе специфика искусственного интеллекта, дипфейков, программ-вымогателей и деятельности в даркнете. Опираясь на научные взгляды зарубежных ученых, раскрыты детерминанты преступного поведения в виртуальном пространстве. Также выдвинуто новое авторское определение понятия «киберкриминология».

Ключевые слова

цифровая криминология, киберпреступность, киберпространство, цифровые следы, искусственный интеллект, дипфейк, виртуальная виктимология, информационная безопасность, превенция.

Abstract

This article comprehensively examines the formation and theoretical-methodological foundations of a new scientific discipline – digital criminology – in the context of the informatization of society. During the research, modern criminogenic threats in cyberspace, including the specific features of artificial intelligence, deepfakes, ransomware, and dark web activities, are systematically analyzed. Based on the scientific views of foreign scholars, the determinants of criminal behavior in the virtual space are revealed. Additionally, a new author's definition of the concept of "cyber criminology" is proposed.

Keywords

digital criminology, cybercrime, cyberspace, digital footprints, artificial intelligence, deepfake, virtual victimology, information security, prevention.

XXI asrning dastlabki o'n yilliklarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining misli ko'rilmagan darajada evolyusiyasi va internet tarmog'ining transnatsional globallashuvi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning paradigmal transformatsiyasiga olib keldi. Bu jarayon jamiyat faoliyatining barcha sohalarini raqamlashtirish orqali insoniyat sivilizatsiyasini taraqqiyotning yangi, axborotlashtirilgan bosqichiga olib chiqdi. Biroq, texnologik determinizmning ob'ektiv qonuniyatlariga muvofiq, mazkur innovatsion qulayliklar bilan bir qatorda, o'ziga xos virtual o'lchamga, chegara bilmas xususiyatga va yuqori darajadagi anonimlikka ega bo'lgan yangi kriminogen muhit – kibermakon shakllandi.

An'anaviy jinoyatchilikning raqamli makonga ko'chishi hamda mutlaqo yangi turdagi, texnologik jihatdan huquqbuzarliklarning paydo bo'lishi huquqshunoslik fani oldiga murakkab va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ydi. Jinoyatchilarning virtual muhitdagi xulq-atvori, ularning kriminal faoliyat usullari va maqsadlari tubdan o'zgardi. Mazkur fenomenni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish zarurati yurisprudensiya va kriminalogiya kesimida yangi fan tarmog'i – raqamli kriminologiyaning (kiberkriminologiya) vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Raqamli kriminologiya nafaqat kiberjinoyatlarning fenomenologiyasini, ya'ni ularning holati, dinamikasi va tarkibini, balki ularning sabab va shart-sharoitlarini, kiberjinoyatchining ijtimoiy va shaxsiy profilini, shuningdek, jabrlanuvchilarning virtual muhitdagi xulq-atvori masalalarini kompleks o'rganuvchi fundamental va amaliy ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu sohaning asosiy maqsadi –

kibermakondagi deviant xulq-atvorni modellashtrish va virtual makondagi huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir. Raqamli texnologiyalarning jinoyat protsessiga joriy etilishi, raqamli izlar bilan ishlash metodologiyasi ham bevosita mazkur yo'nalishning muhim tadqiqot ob'ekti sanaladi.

Bugungi kunda kiberjinoyatchilik individual darajadagi xavf doirasidan chiqib, transnatsional uyushgan jinoyatchilik darajasiga ko'tarildi. Mazkur tahdidlar nafaqat alohida jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy hamda nomulkiy huquqlariga daxl qilmoqda, balki yirik transmilliy korporatsiyalarning iqtisodiy barqarorligiga, davlatlarning muhim axborot infratuzilmalari faoliyatiga, suvereniteti va milliy xavfsizligiga strategik putur yetkazuvchi asimmetrik tahdidga aylanib ulgurdi. Shu bois, kibermakondagi zamonaviy tahdidlarni tizimli tahlil qilish, ularning huquqiy tabiatini ochib berish va qarshi kurashishning samarali vositalarini yaratish bugungi kun yuridik fanining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu esa an'anaviy kriminologiya doirasida ushbu huquqbuzarliklarni to'laqonli tadqiq etish imkoniyatini cheklab qo'ydi. Natijada, 2000-yillarning boshlarida fanda yangi yo'nalish – kiberkriminologiya va keyinchalik raqamli kriminologiya atamalari paydo bo'ldi.

Mazkur tushunchani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida birinchi bo'lib 2007 yilda hindistonlik kriminolog olim, professor Karuppannan Jayshankar ilmiy muomalaga kiritdi. U butunjahon ilmiy hamjamiyatida «kiberkriminologiya» fanining asoschisi sifatida e'tirof etildi. Uning asarlarida odamlarning virtual makondagi deviant xulq-atvori va jinoyat sodir etish motivlari chuqur tahlil qilinadi. K.Jayshankar o'z tadqiqotlarida mazkur yo'nalishga shunday ta'rif beradi: «Kiberkriminologiya – bu kibermakonda sodir etiladigan jinoyatlarning sabablarini, ularning jismoniy makonga ta'sirini o'rganuvchi, kriminologiya, viktimologiya, sotsiologiya va internet texnologiyalarini o'zida birlashtirgan multidissiplinar sohadir»¹⁶.

Shuningdek, Avstraliyalik kriminologlar Anastasiya Pauell, Nikola Genri va Asher Flinn raqamli jinoyatchilik hamda texnologiyalar vositasidagi huquqbuzarliklar sohasida eng ko'zga ko'ringan olimlar qatoriga kiradi va ular bu yo'nalishda ko'plab yirik tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Biroq, bevosita 2018 yilda nashr etilgan va sohada fundamental ahamiyatga ega bo'lgan «Digital Criminology: Crime and Justice in Digital Society» (Raqamli kriminologiya: Raqamli jamiyatda jinoyat va odil sudlov) nomli monografiya Anastasiya Pauell,

¹⁶ Jaishankar, K. (2008). Space Transition Theory of cyber crimes. In Schmallerger, F., & Pittaro, M. (Eds.), Crimes of the Internet. (pp.283-301) Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.

Gregori Stratton va Robin Kameron hamkorligida yozilgan¹⁷. A. Pauell, N. Genri va A. Flinn esa aynan shu davrlarda raqamli makondagi viktimologiya va huquqbuzarliklar bo'yicha chuqur izlanishlar olib borib, butun bir avstraliyalik ilmiy maktabning shakllanishiga asos solishgan¹⁸. Ushbu olimlarning raqamli kriminologiya borasidagi umumiy konseptual qarashlari bir-birini uzviy to'ldiradi va zamonaviy yurisprudensiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu ilmiy maktab vakillarining yondashuviga ko'ra, raqamli kriminologiya faqatgina tor doiradagi xakerlik, ma'lumotlarni o'g'irlash yoki kiberfiribgarlik kabi sof internet jinoyatlarini o'rganish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda insonlarning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlariga shu qadar chuqur singib ketganki, jinoyatchilik va unga qarshi kurashish jarayonlarini raqamli voqelikdan ajratib tahlil qilish mumkin emas. Shu bois, ular mazkur tushunchaning ko'lamini kengaytirib, butun boshli odil sudlov tizimining, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining va hatto jamiyatning jinoyatga bo'lgan munosabatining raqamlashuvini asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida belgilaydilar.

Mazkur olimlarning ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyatda texnologiyalar nafaqat jinoyat sodir etish quroli yoki vositasi, balki ijtimoiy nazorat va jazolashning mutlaqo yangi mexanizmlarini yaratuvchi muhitga aylangan. Masalan, huquqbuzarliklarni kuzatuv kameralari, big-data algoritmlari, biometrik identifikatsiya yoki ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq ma'lumotlar orqali fosh etish jarayonlari ham bevosita raqamli kriminologiya predmeti hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning virtual makondagi faoliyati an'anaviy tergov usullaridan tubdan farq qilishi, raqamli izlarni yig'ish va tahlil qilish mutlaqo yangicha protsessual yondashuvlarni talab etishi ilmiy asoslab beriladi.

Shuningdek, tadqiqotchilar norasmiy odil sudlovning raqamli shakllariga, ya'ni fuqarolarning internet tarmog'ida o'zlaricha «sud qilish» yoki kiber-ta'qib orqali jazolash holatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Bu tendensiya davlatning qonuniy jazolash monopoliyasi virtual makonda qanday tarzda eroziyaga uchrayotganligini va ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida jamoatchilik hukmi qay darajada o'zgarayotganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, A. Pauell va uning hamkasblari raqamli tengsizlik hamda virtual makondagi jabrlanuvchiga aylanish jarayonlarining ijtimoiy-huquqiy ildizlarini tizimli o'rganadilar. Texnologiyalar mavjud ijtimoiy muammolar va

¹⁷ Powell A., Henry N., Flynn A. Image-based sexual abuse // Routledge Handbook of Critical Criminology / Ed. by W. DeKeseredy, M. Dragiewicz. – 2nd ed. – London: Routledge, 2018. – P. 305-315.

¹⁸ Powell A., Stratton G., Cameron R. Digital Criminology: Crime and Justice in Digital Society. – London: Routledge, 2018. – 238 p.

ziddiyatlarni yangicha, yanada ommaviy va destruktiv ko'rinishda namoyon bo'lishiga xizmat qilishini ilmiy jihatdan isbotlaydilar.

Raqamli jamiyatning shakllanishi jinoyatchilikning fenomenologik manzarasini tubdan o'zgartirib, an'anaviy huquqbuzarliklarning virtuallashuviga va mutlaqo yangi kriminal konstruktarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bugungi kunda kibermakondagi tahdidlar o'zining yuqori darajadagi latentligi, transchegaraviyligi va yetkaziladigan zarar ko'laminig kengligi bilan ajralib turadi. Mazkur tahdidlarni tizimli kriminologik tahlil qilish ularning tabiatini to'g'ri baholash va ularga qarshi adekvat huquqiy mexanizmlarni yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy kiberjinoyatchilikning eng xavfli va iqtisodiy jihatdan eng ko'p talafot keltiruvchi shakllaridan biri — bu to'lov talab qiluvchi dasturlar orqali amalga oshiriladigan hujumlardir. Bu turdagi jinoyatlar nafaqat alohida shaxslarning ma'lumotlariga, balki davlat boshqaruvi organlari, sog'liqni saqlash va yirik sanoat korxonalarining muhim axborot infratuzilmalariga qaratilganligi bilan strategik xavf tug'diradi. So'nggi yillarda mazkur jinoyat turi «xizmat sifatidagi to'lov dasturi» modeli asosida transmilliy sindikatlar tomonidan boshqariluvchi uyushgan va serdaromad noqonuniy biznesga aylanib ulgurdi.

Texnologik himoya vositalari qanchalik takomillashmasin, kibermakondagi eng zaif bo'g'in hamon inson omili bo'lib qolmoqda. Shu bois, ijtimoiy injeneriya va fishing texnologiyalari orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar kriminal statistikada mutlaq yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Jinoyatchilar psixologik manipulyatsiya, qo'rqitish yoki ishonchga kirish orqali jabrlanuvchilarni o'z ixtiyori bilan maxfiy ma'lumotlarni yoki moliyaviy resurslarni topshirishga majbur qiladilar. Bu esa raqamli viktimologiya doirasida aholining kibergigienasi va axborot savodxonligi masalasini global muammo darajasiga olib chiqadi.

Raqamli tahdidlar evolyusiyasining navbatdagi bosqichi bevosita sun'iy intellekt (AI) va neyrotarmoqlarning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Dipfeyk texnologiyalari yordamida shaxsning ovozi va video tasvirini o'ta aniqlikda qalbakilashtirish orqali sodir etilayotgan firibgarlik, shantaj va dezinformatsiya kampaniyalari jamiyatdagi o'zaro ishonch institutiga jiddiy putur yetkazmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt vositasida zararli kodlarni avtomatik generatsiya qilish va kiberhujumlarni mustaqil amalga oshiruvchi algoritmlarning yaratilishi an'anaviy xavfsizlik tizimlarini konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Bundan tashqari, internetning yashirin segmenti hisoblangan Darkweb (Darkweb) va kriptografik valyutalarning ommalashuvi jinoiy daromadlarni

legallashtirish, noqonuniy tovarlar va taqiqlangan xizmatlar savdosi uchun mukammal anonim infratuzilmani yaratib berdi. Bu holat huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun jinoyatchilarni identifikatsiya qilish va transchegaraviy jinoiy faoliyatni fosh etishda jiddiy protsessual hamda texnik to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Shunday qilib, kibermakondagi tahdidlar bir xil qolipga tushmaydigan, doimiy ravishda mutatsiyaga uchrab, murakkablashib boruvchi polimorf hodisadir. Ularga qarshi samarali kurashish esa faqatgina innovatsion texnik yechimlarni joriy etish bilan emas, balki jinoyat-protsessual qonunchiligini modernizatsiya qilish va davlatlararo kriminalistik hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, «raqamli kriminologiya» tushunchasi so'nggi yigirma yil ichida tor doiradagi texnologik huquqbuzarliklarni o'rganishdan boshlab, jamiyatning raqamli transformatsiyasi davridagi jinoyatchilik qonuniyatlarini o'rganuvchi fundamental majmuaviy fan darajasiga ko'tarildi. K. Jayshankar, D. Uoll va boshqa yetakchi olimlarning ilmiy merosi bugungi kunda milliy va xalqaro qonunchilikni takomillashtirish hamda raqamli makondagi tahdidlarga qarshi kurashishning nazariy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur nazariy poydevor asosida bugungi kun amaliyoti uchun bir qator ustuvor takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Xususan, milliy jinoyat qonunchiligimizda sun'iy intellekt, dipfeyk va neyrotarmoqlar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning yuridik maqomi hamda javobgarlik masalalarini aniq belgilash zarur. Shuningdek, raqamli dalillarni yig'ish, kriptografik fiksatsiya qilish va sudda taqdim etishning protsessual mexanizmlarini eng ilg'or xalqaro standartlarga moslashtirish talab etiladi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida faqatgina raqamli izlar va virtual makondagi kriminal aktivlar bilan ishlovchi yuqori malakali kibertergovchilar institutini takomillashtirish hamda aholining kibergigiena madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks milliy prevensiya dasturlarini joriy etish kechiktirib bo'lmas vazifalardan sanaladi.

Yuqoridagi tahlillarga va zamonaviy tendensiyalarga tayangan holda, ushbu sohaga quyidagicha yangi mualliflik ta'rifini taklif etamiz:

Kiberkriminologiya — bu nafaqat virtual makondagi jinoiy xulq-atvor va texnologik tahdidlarning determinantlarini, balki raqamli voqelik ta'sirida jamiyatning huquqiy ongi, odil sudlov tizimi va ijtimoiy nazorat institutlarida yuz berayotgan evolyusion transformatsiyalarni, shuningdek, insonning raqamli huquqlarini himoya qilishning innovatsion mexanizmlarini kompleks tadqiq

etuvchi yurisprudensiya va axborot texnologiyalari kesimidagi multidissiplinar fandır.